



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATN TAHLILI JARAYONIDA DIQQAT TARQOQLIGI VA RAQAMLI MUHITNING TASIRI.

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.068>

Rahmatova Diyora Sayfiddin qizi

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang‘ich ta‘lim) yo‘nalishi 1- bosqich magistranti

raxmatovadiyora507@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida umumiy dars jarayonlarida yuzaga keladigan diqqat tarqoqligi, raqamli muhit va kognitiv bandlik muammolari psixologik hamda pedagogik nuqtayi nazardan tahlili ko‘rib chiqiladi. Raqamli muhitning bolalar kognitiv rivojlanishiga ta‘siri, ishchi xotira va ijro funksiyalarining o‘rni, kognitiv yuklama nazariyasi hamda zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar asosida muammo yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida o‘quvchilarning diqqatni uzoq muddat saqlab tura olmaslik sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik yechimlar taklif etiladi. Xususan, Jonathan Haidt ning Behalovat avlod (The Anxious Generation) asaridagi ilmiy dalillar asosida bolalarda turli biologik va psixologik o‘zgarishlarning diqqat barqarorligiga salbiy ta‘siri va uning ta‘lim jarayonidagi oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: diqqat tarqoqligi, kognitiv yuklama, ishchi xotira, matn tahlili, boshlang‘ich ta‘lim, raqamli muhit, chuqur o‘qish.

Аннотация. В данной статье рассматривается психологический и педагогический анализ проблемы рассеянности внимания у учащихся начальных классов, возникающей в процессе общего учебного занятия, а также вопросы цифровой среды и когнитивной перегруженности. Освещается влияние цифровой среды на когнитивное развитие детей, роль рабочей памяти и исполнительных функций, теория когнитивной нагрузки и современные социально-психологические исследования по данной проблеме.

Кроме того, выявляются причины неспособности учащихся длительное время сохранять концентрацию внимания в ходе урока и предлагаются педагогические решения, направленные на их устранение. В частности, на основе научных данных, представленных в книге The Anxious Generation Jonathan Haidt, анализируется негативное

влияние различных биологических и психологических изменений у детей на устойчивость внимания и их последствия для образовательного процесса.

Ключевые слова: рассеянность внимания, когнитивная нагрузка, рабочая память, анализ текста, начальное образование, цифровая среда, глубокое чтение.

Abstract. This article examines the psychological and pedagogical analysis of attention deficit and distraction observed in primary school students during general classroom instruction, as well as issues related to the digital environment and cognitive overload. The study explores the impact of the digital environment on children’s cognitive development, the role of working memory and executive functions, cognitive load theory, and contemporary socio-psychological research addressing the issue.

Furthermore, the causes of students’ inability to sustain attention for extended periods during lessons are identified, and pedagogical solutions aimed at overcoming these challenges are proposed. In particular, based on the scientific evidence presented in *The Anxious Generation* by Jonathan Haidt, the article analyzes how various biological and psychological changes in children negatively affect attention stability and discusses their implications for the educational process.

Keywords: attention deficit, cognitive load, working memory, text analysis, primary education, digital environment, deep reading.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan davrda boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning matnni chuqur anglash va tahlil qilish jarayonlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. O‘qish savodxonligi faqat harflarni o‘qish emas, balki mazmuni tushunish, tahlil qilish, fikr almashish va xulosa chiqarish jarayonidir. Ushbu jarayon esa barqaror diqqat, yetarli ishchi xotira hajmi va samarali ijro funksiyalarini talab qiladi.

So‘nggi yillarda o‘qituvchilar tomonidan boshlang‘ich sinflarda diqqatning tez chalg‘ishi, matn ustida uzoq ishlay olmaslik va yuzaki o‘qish tendensiyasi ortib borayotgani qayd etilmoqda. Mazkur holatning psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Matn tahlilining psixologik asoslari

Matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida matnni o‘qish, mazmuni vaqtincha xotirada saqlash, oldingi bilimlar bilan bog‘lash, mantiqiy xulosa chiqarish va mantiqiy xulosa chiqarish amallarni bajaradi. Bu jarayon ishchi xotira (working memory) faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ishchi xotira hajmi cheklangan bo‘lib, ortiqcha ma’lumot yoki tashqi chalg‘ituvchi omillar: virtual dunyodagi chalg‘ituvchi omillar va bola miya


rivojlanishining eng nozik davridagi ijtimoiy solishtirmalar va keraksiz xabarlar uning samaradorligini pasaytiradi. Natijada o‘quvchi matn mazmunini to‘liq anglay olmaydi.

Hozirgi davr pedagoglari orasida Alfa avlod bilan ishlash masalasi dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda. Alfa avlod - taxminan 2012 – yillardan buyog‘ida tug‘ilgan bolalar va yoshlar avlodidir. Ular to‘liq raqamli muhitda ulg‘aygan birinchi avlod bo‘lib, internet, smartfon va ijtimoiy tarmoqlar ularning kundalik hayotining ajralmas qismidir. Bu o‘rinda pedagogdan bu avlod bilan ishlashda qanday ko‘nikma va malakalar talab qilinadi? Aslida biz ularga moslashgan holda dars jarayonlarini olib borishimiz kerakmi? Yoki ular biz to‘g‘ri deb topgan yo‘ldan ketishi kerakmi?


Yetti yoshida akkaunti bor avlod bizga kirib kelmoqda. “Akkauntli avlod” degani ikki xil shaxs degani ya’ni virtual olamda boshqa shaxs degani va real hayotda boshqa shaxs. Raqamli muhitda erta ijtimoiylashuv natijasida bolada ikki xil ijtimoiy identitet shakllanishi mumkin: virtual identitet va real ijtimoiy rol. Bu esa diqqatning ichki barqarorligiga ta’sir etuvchi psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu qatorda, bu muhit tasirida bolalarda tashvish darajasini oshirishi, uyqu sifatini pasaytirishi, frontal korteks rivojlanishiga bilvosita ta’sir qilishi ⁴⁴Jonathan Haidt o‘zining *The Anxious Generation* asarida chuqur tahlil qilib beradi.

⁴⁴ [Jonathan Haidt The Anxious Generation asarida 12-25 yosh orasida halovatsizlik statistikasi](#)

Yoshga ko‘ra halovatsizlik



O‘smirlar orasida og‘ir depressiya



2. Chuqur o‘qish (deep reading) muammosi

Raqamli skanerlash o‘qish uslubi chuqur analitik o‘qishni kamaytiradi. Bunda o‘quvchi matni o‘qiydi va uning voqealar rivojini takrorlab bera oladi ammo uning chuqur mazmunini anglamaydi. Ya’ni u “matn nimani aytayabdi?” Savoliga javob bera oladi lekin “muallif qanday g‘oyani nazarda tutgan?” savoliga javob bera olmaydi. Bu holat ko‘pincha ishchi xotiraning cheklanganligi bilan aloqador. Raqamli muhitda qisqa kontentli jarayonga o‘rgangan bola uzoq va murakkab matni o‘qish va tahlil qilishga qiynalishi bilan bir qatorda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati ham susayib boradi. Bu chuqur o‘qish (deep reading) ko‘nikmasidan shakllanmasligiga va matn bilan ishlash kompetensiyasining yetarli bo‘lmasligiga olib keladi.

3. Neyropsixologik omil

Behalovat avlod (The Anxious Generation) asarida “Bolada miyaning mukofot istovchi tizimi erta rivojlanadi, ammo uning istakni tiyish, sabr qilish va rujuga qarshilik uchun muhim bo‘lgan sohasi - old qismi (frontal cortex) taxminan 25 yoshgacha to‘la shakllanmaydi.” deyiladi. Bolalarning etibori yorqin ranglar, doimiy yangilanish va har bir harakatiga kichik mukofotlar istaydi. Natijada o‘quvchi qisqa harakat va darhol natija xoxlaydi. Holat kutgandek bo‘lmasa, tushkunlik, depressiya va ruhiy buzilishni yuzaga keltiradi. Natijada dars jarayonida berilgan murakkab vazifalardan qochib, tez natija beradigan faoliyatga moyilligi oshib boradi.

Raqamli stimulyatsiyaning kuchayishi va diqqat barqarorligining pasayishi sharoitida an’anaviy dars tashkil etish usullari yetarli samara bermasligi mumkin. Shundan kelib chiqib, mazkur muammoni bartaraf etish uchun psixologik va pedagogik jihatdan yondashish zarur. Demak, zamonaviy boshlang‘ich ta’lim jarayonida nafaqat muammoni aniqlash, balki unga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb vazifaga aylanmoqda.

1. Amaliy mashg‘ulot.

Bu jarayonda 10-15 minutlik yangi malumotlar taqdim etiladi. So‘ng, o‘quvchilar bilan faol ishlash bosqichiga o‘tiladi. Bunda bizga metodik mahurat yordam beradi va juftlik yokida guruh bo‘lib o‘quvchilar o‘rtasida mavzuni yanada chuqurlashtiruvchi metod bajariladi. Bu mashg‘ulotdan kuzlangan maqsad, o‘quvchiga ortiqcha ma’lumot yuklamaslik, diqqatini qayta to‘play olish va zerikishni oldini olish. Bu usul kognitiv yuklama nazariyasi ⁴⁵(Cognitive Load Theory) muallifi John Sweller tamoyillariga ham keltirib o‘tilgan.

2. Multimodel taqdimot.

Bu bosqich Alfa avlod dars jarayonlari uchun samarli natija berishi mumkin. Ya’ni bunda matni o‘qishdan turli usullardan foydalanish, audiolar tinglash, rolga kirib ijro etish va voqelikni vizual-motorikadan foydalangan holda tasvirlash. Bu yondashuv o‘quvchida ma’lumotlarni ishchi xotiraga taqsimlab yetkazishda yordam beradi. Bajarayotgan qiziqarli vazifalari orqali malumotni bola xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishida yordam beradi. Shu qatorda diqqatni ham uzoqroq saqlab qola olamiz.

⁴⁵ [Cognitive Load Theory](#)) muallifi John Sweller

3. Metakognitiv savollar.

Biz boshlang‘ich sinflar bilan ishlash davomida ularning dunyoqarashi va fikrlashini rivojlantirish ustida ham chuqurroq yondashishimiz lozim. Dars davomida nafaqat matnni tushuntirib uni ustida bir necha amallar olib boramiz balki shu orqali o‘quvchining mantiqiy fikrlashini ham kengaytirishimiz mumkin. Bunda o‘quvchini matnni qanday tushunganini, qayerda qiyinchilik bo‘lganini va qanday xulosaga kelganini surash orqali yuqorida kuzlangan maqsadimizga erishishimiz mumkin. Bu yondashuv orqali o‘quvchida fikr almashish va tengdoshini tinglash qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Xulosa.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhit tasirda bolalarning diqqat barqarorligida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Tezkor vizual stimullar, qisqa formatli kontentlar va doimiy axborot oqimida bolaning tez mukofotlanish modeli shakllanib bormoqda. Natijada sabr, kechiktirilgan mukofotni kutish va ixtiyoriy diqqatni boshqarish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmay qolishi ko‘rishimiz mumkin. Boshlang‘ich sinflarda matn tahlili jarayoni nafaqat o‘qish texnikasini egallash, balki murakkab kognitiv operatsiyalarni amalga oshirishni talab etayotgan bir vaqtda bu yuqorida qayd etilgan mezanizmlar ta‘lim jarayoniga salbiy tasir ko‘rsatmoqda. O‘quvchi bir vaqtning o‘zida matnni o‘qishi, mazmunni ishchi xotirada saqlashi, oldingi bilimlar bilan bog‘lashi, mantiqiy xulosa chiqarishi hamda sabab-oqibatlarini tahlil qila olishi lozim. Mazkur jarayonlarning samaradorligi ishchi xotira hajmi va ijro funksiyalarining rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

Shu bois muammoni faqat texnologik omil sifatida emas, balki kognitiv rivojlanish va pedagogik tashkil etish masalasi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida darsni multimodal taqdimotdan foydalanish, diqqatni boshqarish mashqlarini joriy etish, metakognitiv savollar orqali refleksiyaning kuchaytirish hamda ijtimoiylashuv jarayonini shakllantirish muhim pedagogik yo‘nalishlar hisoblanadi.

Barcha fikrlarni inobatga olib aytadigan bo‘lsak, raqamli muhitni inkor etish emas, balki uni ongli va nazoratli tarzda boshqarish, shu bilan birga bolalarda ixtiyoriy diqqat, sabr va chuqur fikrlash ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Matn tahlili jarayonini kognitiv imkoniyatlarga mos ravishda tashkil etish orqali diqqat tarqoqligi muammosini kamaytirish va o‘quvchilarda mustaqil, mantiqiy hamda chuqur fikrlash kompetensiyasini shakllantirish mumkin.

Kitoblar

1. Jonathan Haidt ning Behalovat avlod (The Anxious Generation)
2. John Sweller (Cognitive Load Theory)

3. U.Uvatov Donolardan saboqlar

Jurnallar

1. New York time bestseller
2. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali
3. Meros jurnali.

Vebsayt

1. <https://jonathanhaidt.com/anxious-generation/>
2. <https://www.sciencedirect.com/science/chapter/bookseries/abs/pii/B978012387691100>

0028

3. <https://www.academy.uz/uz/journals/ozbek-tili-va-adabiyoti-jurnali>